



UDK: 37.013.2:37.091.12

Umida AXROROVA,
University of Business and Science dotsenti
E-mail: umiaxorhamid@gmail.com

NamDPI dotsenti, PhD S.Botirova taqrizi asosida

THE ESSENCE AND STRUCTURAL COMPONENTS OF SOFT SKILLS IN PEDAGOGICAL EDUCATION

Annotation

This article analyzes the essence and structural components of soft skills based on socio-philosophical and methodological approaches. Soft skills are substantiated as an integrative system of personal qualities determining professional effectiveness, social adaptability, and qualitative indicators of human capital. The study develops a conceptual model of soft skills consisting of cognitive, communicative, socio-emotional, reflective, and axiological components and reveals their dialectical interrelation. The research emphasizes the strategic importance of soft skills development within modern education and human capital formation.

Key words: Soft skills, hard skills, competency-based approach, human capital, emotional intelligence, reflection, axiological component, universal competencies.

СОДЕРЖАНИЕ И СТРУКТУРНЫЕ КОМПОНЕНТЫ SOFT-КОМПЕТЕНЦИЙ В ПЕДАГОГИЧЕСКОМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация

В данной статье анализируются сущность и содержание soft-компетенций, их роль в современной системе образования, а также структурные компоненты на основе социально-философского и теоретико-методологического подходов. Soft-компетенции обосновываются как интегративная система личностных качеств, определяющих профессиональную эффективность, социальную адаптивность и качественные показатели человеческого капитала. В результате исследования разработана концептуальная модель soft-компетенций, включающая когнитивный, коммуникативный, социально-эмоциональный, рефлексивный и аксиологический компоненты, а также раскрыта их диалектическая взаимосвязь.

Ключевые слова: Soft-компетенции, soft skills, hard skills, компетентностный подход, человеческий капитал, эмоциональный интеллект, рефлексия, аксиологический компонент, универсальные компетенции.

PEDAGOGIK TA'LIMDA SOFT-KOMPETENSIYALARNING MAZMUNI VA TARKIBIY KOMPONENTLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada soft-kompetensiyalarning mazmun-mohiyati, ularning zamonaviy ta'lim tizimidagi o'rni hamda tarkibiy komponentlari ijtimoiy-falsafiy va nazariy-metodologik yondashuvlar asosida tahlil qilinadi. Soft-kompetensiyalar shaxsning kasbiy samaradorligi, ijtimoiy moslashuvchanligi va inson kapitalining sifat ko'rsatkichlarini belgilovchi integrativ sifatlar tizimi sifatida asoslanadi. Tadqiqot natijasida soft-kompetensiyalarning kognitiv, kommunikativ, ijtimoiy-emotsional, refleksiv va aksiologik komponentlardan iborat konseptual modeli ishlab chiqiladi hamda ularning o'zaro dialektik bog'liqligi ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Soft-kompetensiya, soft skills, hard skills, kompetensiyaviy yondashuv, inson kapitali, emotsional intellekt, refleksiya, aksiologik komponent, universal kompetensiyalar.

Kirish. Zamonaviy jamiyat ta'lim tizimi oldiga yuqori malakali, intiluvchan, raqobatbardosh, tashabbuskor, ma'naviy va jismoniy soqlom shaxslarni tarbiyalab berish talabini qo'yimoqda. Bunda jamiyat taraqqiyoti inson kapitalining sifat ko'rsatkichlariga tobora ko'proq bog'lanib bormoqda. Inson kapitali nazariyasining asoschisi G. Becker ta'kidlaganidek, iqtisodiy o'sishning muhim omili – bu insonning bilim va ko'nikmalaridir [3]. Biroq XXI asr sharoitida bilimning o'zi yetarli emas. Mehnat bozori dinamikasi, texnologik yangilanishlar va ijtimoiy munosabatlarning murakkablashuvi shaxsdan moslashuvchanlik, kreativlik va kommunikativlikni talab etmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Funksiyalarni to'g'ri bajarish uchun pedagog kompetentlik va kompetensiya tushunchasini bilishi, har tomonlama rivojlanib, kasbiy o'sishi uchun qaysi yo'nalishda harakatlanishini bilishi kerak. Kompetensiya tushunchasi dastlab psixologik tadqiqotlarda paydo bo'lgan. D.McClelland 1973-yilda chop etilgan maqolasida an'anaviy intellekt testlari shaxsning real muvaffaqiyatini to'liq aks ettirmasligini ta'kidlab, kompetensiyaviy yondashuvni ilgari surgan [5]. Uning fikricha,

samaradorlikni belgilovchi omil – bu shaxsning ichki motivatsiyasi va xulq-atvor xususiyatlaridir. R. Boyatzis esa kompetensiyani "natijaga yo'naltirilgan barqaror xulq-atvor modeli" sifatida talqin qiladi [6]. Bu yondashuv soft-kompetensiyalarni shaxsning tashqi harakati emas, balki ichki psixologik mexanizmlar bilan bog'liq tizim sifatida ko'rishga asos bo'ladi. Jahon iqtisodiy forumining "Future of Jobs" hisobotida tanqidiy fikrlash, muammoni hal qilish, jamoada ishlash va emotsional intellekt eng zarur kompetensiyalar sifatida qayd etiladi [4]. Bu esa soft-kompetensiyalarning iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyati ortib borayotganini ko'rsatadi.

Shu nuqtai nazardan, soft-kompetensiyalarni faqat amaliy ko'nikmalar yig'indisi sifatida emas, balki shaxsning ijtimoiy-madaniy va aksiologik rivojlanishini belgilovchi tizimli fenomen sifatida o'rganish zarur.

Tadqiqot metodologiyasi. Kompetensiyalar ta'rifiga bir qancha yondashuvlar mavjud:

- Amerikancha yondashuvda kompetensiyalar xodimlarning xulq-atvori namunasi sifatida ko'rib chiqiladi. Agar xodim zarur ko'nikma va bilimlarga ega bo'lsa, yaxshi natijalarni namoyish etadi.

- Yevropacha yondashuvda kompetensiyalar ish vazifalari va kutilgan ish natijalarining tavsifi, ya'ni qabul qilingan standartlarga muvofiq harakat qilish qobiliyati sifatida ko'riladi[2].

Vazirlar Maqkamasining 2017-yil 6-apreldagi 187-son harori bilan tasdiqlangan Umumiy o'rta ta'limning Davlat Ta'lim Standartida kompetensiya tushunchasiga mavjud bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik faoliyatda qo'llay olish qobiliyati sifatida ta'riflangan[1].

Soft-kompetensiyalar nimani anglatadi?

Soft-kompetensiyalar:

• inson kapitali nazariyasi doirasida strategik resurs hisoblanadi;

• zamonaviy boshqaruv falsafasida liderlikning asosi sifatida qaraladi;

• korporativ ta'lim tizimida asosiy rivojlantirish obyekti hisoblanadi.

Agar hard skills – bu diplom, mutaxassislik, qonunlarni bilish bo'lsa,

soft skills – bu:

• odamlar bilan til topisha olish

• nizolarni hal qilish

• jamoani ruhlantirish

• stressga chidamlilik

• mas'uliyat va liderlik

Rahbar uchun aynan soft-kompetensiyalar tashkilot muvaffaqiyatining 60–80% omili hisoblanadi. Rahbar-kadrlarning soft-kompetensiyalari — bu rahbarning kasbiy (hard) bilimlaridan tashqari, jamoa bilan samarali ishlashi, qaror qabul qilishi va insoniy munosabatlarni boshqarishida namoyon bo'ladigan ijtimoiy-psixologik, kommunikativ va shaxsiy fazilatlar majmuidir. Yoki oddiy qilib aytganda: Soft-kompetensiya – bu rahbarning “insonlar bilan ishlash san'ati” va “o'zini boshqarish madaniyati”dir.

Demak, soft-kompetensiyalar:

faoliyat samaradorligini ta'minlovchi ichki sifatlar;

ijtimoiy muhitga moslashuv mexanizmi;

kasbiy muvaffaqiyatning psixologik va aksiologik asosi sifatida namoyon bo'ladi.

Tahlil va natijalar. Professionallik va kompetentlik bir-biriga o'hashish bo'lsada, har xil ma'noga ega bo'lgan atamalaridir. Professionallik deganda nafaqat ma'lum bilimlar, balki mehnatga bo'lgan munosabat, ishning o'ziga xos xususiyatlari tushuniladi. Rivojlangan kompetensiyalar darhol seziladi, chunki professional pedagog o'z ko'nikmalarini rivojlantirishga harakat qiladi, muayyan maqsad va natijalarga erishishga intiladi, ishchan qadriyatlar ishlab chiharadi va bular odatda ish jarayonining standartiga mos keladi. Kompetentlik esa biroq murakkab mazmunga ega, sababi, nafaqat bilimlarning mavjudligini, balki shu bilan birga ularni qo'llash qobiliyatini ham taqozo etadi. Kompetentlik faqat keng qamrovli baholash va kuzatish paytida aniqlanishi mumkin.

OECD hujjatlarida transversal kompetensiyalar shaxsning turli kontekstlarda samarali faoliyat yuritish qobiliyati sifatida ta'riflanadi [7]. Ushbu yondashuv soft-kompetensiyalarning universalligini asoslaydi.

1. Tizimli yondashuv

Tizimli yondashuvga ko'ra, har qanday fenomen o'zaro bog'liq elementlardan iborat yaxlit tizimdir. Soft-kompetensiyalar ham alohida ko'nikmalar yig'indisi emas, balki bir-biri bilan uzviy bog'langan sifatlar majmuasidir.

2. Kompetensiyaviy paradigma

I.A. Zimnyaya kompetensiyani ta'lim natijasining integrativ ko'rsatkichi sifatida talqin qiladi [8]. Uning fikricha, kompetensiya bilim, ko'nikma va shaxsiy pozitsiyaning birligida namoyon bo'ladi. Bu esa soft-kompetensiyalarning mazmunini kengaytiradi.

3. Aksiologik yondashuv

A.N. Leontyev faoliyat nazariyasida shaxsning motiv va qadriyatlarini faoliyat samaradorligining asosiy omili ekanini ko'rsatadi [9]. Soft-kompetensiyalar ham shaxsning qadriyatlar tizimi bilan chambarchas bog'liq.

1-jadval

Soft-kompetensiyalarning tarkibiy komponentlari va mazmuni

Soft-kompetensiyalarning tarkibiy komponentlari: kengaytirilgan model

№	Komponent	Mazmuni	Asosiy ko'rsatkichlar	Nazariy manba
1	Kognitiv	Tanqidiy va kreativ tafakkur	Analitik fikrlash, muammoni hal qilish	Facione
2	Kommunikativ	Ijtimoiy muloqot samaradorligi	Tinglash, muzokara, konfliktologiya	Hymes
3	Ijtimoiy-emotsional	Emotsional intellekt	Empatiya, stressga bardoshlilik	Goleman
4	Refleksiv	O'zini tahlil qilish	O'zini baholash, o'z-o'zini rivojlantirish	Dewey
5	Aksiologik	Qadriyatlar tizimi	Mas'uliyat, etik pozitsiya	Leontyev

1. Kognitiv komponent

Bu komponent tanqidiy fikrlash, kreativ tafakkur va analitik qobiliyatlarni o'z ichiga oladi. P. Facione tanqidiy fikrlashni dalillarni tahlil qilish va asoslangan xulosa chiqarish jarayoni sifatida ta'riflaydi [10]. Tanqidiy fikrlashning mavjudligi shaxsning mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini oshiradi.

Kreativlik esa muammoga nooddiy yondashuvni ta'minlaydi. Zamonaviy innovatsion iqtisodiyot sharoitida bu sifat alohida ahamiyat kasb etadi.

2. Kommunikativ komponent

D.Hymes kommunikativ kompetensiyani til vositalarini ijtimoiy kontekstga mos qo'llash qobiliyati sifatida talqin etadi [11]. Bu tushuncha soft-kompetensiyalarning ijtimoiy yo'naltirilganligini ko'rsatadi.

Kommunikativ komponent quyidagilarni qamrab oladi:

samarali muloqot;

tinglash madaniyati;

konfliktologik kompetensiya;

2-jadval

muzokara olib borish qobiliyati.

3. Ijtimoiy-emotsional komponent

D. Goleman emotsional intellektni o'z his-tuyg'ularini anglash va boshqarish qobiliyati sifatida izohlaydi [12]. Unga ko'ra, emotsional intellekt yuqori bo'lgan shaxslar jamoada samaraliroq ishlaydi.

Mazkur komponent empatiya, stressga bardoshlilik va liderlik sifatlarini ham qamrab oladi.

4. Refleksiv komponent

J. Dewey refleksiyani tajribani ongli ravishda qayta ko'rib chiqish jarayoni sifatida talqin qiladi [13]. Refleksiya shaxsning o'z ustida ishlash mexanizmini belgilaydi.

5. Aksiologik komponent

Soft-kompetensiyalar shaxsning qadriyatlar tizimi bilan uzviy bog'liq. Mas'uliyat, etik me'yorlarga rioya qilish va ijtimoiy faollik ushbu komponentning asosini tashkil etadi.

Dialektik integratsiya va konseptual model. Soft-kompetensiyalar komponentlari o'zaro uzviy bog'liq. Quyidagi jadval ularning o'zaro ta'sirini ko'rsatadi.

Komponentlararo dialektik bog'liqlik

№	Asosiy komponent	Ta'sir qiluvchi komponent	Natijaviy sifat
1	Kognitiv	Refleksiv	Mustaqil qaror qabul qilish
2	Kommunikativ	Emotsional	Samarali jamoaviy faoliyat
3	Aksiologik	Kognitiv	Mas'uliyatli liderlik
4	Emotsional	Kommunikativ	Konfliktni konstruktiv hal qilish

Soft-kompetensiyalar komponentlari o'zaro dialektik birlikda namoyon bo'ladi. Masalan, kommunikativ samaradorlik emotsional intellektisiz mumkin emas; tanqidiy fikrlash esa refleksiyasiz to'liq shakllanmaydi.

3-jadval

Inson kapitali va soft-kompetensiyalar o'zaro bog'liqligi

№	Inson kapitali ko'rsatkichi	Soft-kompetensiya turi	Ta'sir mexanizmi
1	Mehnat unumdorligi	Kognitiv	Innovatsion yechimlar
2	Ijtimoiy barqarorlik	Emotsional	Konfliktni kamaytirish
3	Institutsional rivojlanish	Aksiologik	Etik boshqaruv
4	Tashkilot samaradorligi	Kommunikativ	Jamoaviy uyg'unlik

Taklif etilayotgan model uch darajani o'z ichiga oladi:

Intrashaxsiy daraja – refleksiya va emotsional boshqaruv;

Intershaxsiy daraja – kommunikativlik va empatiya;

Kasbiy daraja – tanqidiy fikrlash va muammoni hal qilish.

Soft-kompetensiyalar inson kapitalining sifat ko'rsatkichlarini belgilaydi. G. Becker nazariyasini zamonaviy sharoitda qayta talqin qilgan tadqiqotchilar inson kapitali faqat bilim emas, balki ijtimoiy kompetensiyalar bilan ham belgilanadi, degan xulosaga keladilar [3].

Soft-kompetensiyalar va inson kapitali o'rtasidagi bog'liqlik. Inson kapitalining sifat ko'rsatkichlari faqat diplom bilan emas, balki quyidagi omillar bilan belgilanadi:

Bu esa soft-kompetensiyalarni iqtisodiy rivojlanish omili sifatida ko'rishga asos beradi.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, soft-kompetensiyalar shaxsning kasbiy va ijtimoiy samaradorligini belgilovchi integrativ sifatlar tizimidir. Ular kognitiv, kommunikativ, ijtimoiy-emotsional, refleksiv va aksiologik komponentlardan iborat bo'lib, o'zaro dialektik birlikda namoyon bo'ladi. Soft-kompetensiyalarni tizimli rivojlantirish inson kapitalini yuksaltirish va jamiyatning barqaror taraqqiyotini ta'minlashning muhim omili hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

- Jabborova O.M., & Ismoilova D.M.(2020, May). Optimization of primary education. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 10(5), 1229-1232.
- Jabborova O.M, Jumanova F.U., & Mahkamova Sh.R. (2020). Formation of Artistic Perception of Future Teachers. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 24(4), 4087-4095.
- Becker G. Human Capital. – Chicago, 1993.
- World Economic Forum. Future of Jobs Report. – 2023. McClelland D. Testing for Competence Rather Than for Intelligence // American Psychologist. – 1973.
- Boyatzis R. The Competent Manager. – 1982.
- OECD. Skills for Social Progress. – Paris, 2015.
- Зимняя И.А. Ключевые компетенции и компетентностный подход. – М., 2004.
- Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. – М., 1975.
- Facione P. Critical Thinking: Expert Consensus. – 1990.
- Hymes D. On Communicative Competence. – 1972.
- Goleman D. Emotional Intelligence. – 1995.
- Dewey J. How We Think. – 1933.